Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317438

AHOLI BANDLIGI VA DAROMADLARINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB'EKTLARI KO‘RSATKICHLARINI EKONOMETRIK TAHLIL QILISH.

Xabibullayeva Feruzabonu Xurshidbek qizi
TDIU Andijon fakulteti
“Iqtisodiyot70/23” II – bosqich talabasi
E-mail:feruzaxabibullayeva9@gmail.com
Абдугофуров Боходир Абдурахмон угли.
АКХАИ бухгалтерия хисоби ва аудит йуналиш талабаси

Annotsatsiya: Mazkur maqolada aholi bandligi va daromadlarini oshirishda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik subyektlarining rolini ekonometrik tahlil asosida o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — kichik biznes ko‘rsatkichlari bilan bandlik va aholi daromadlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashdan iborat. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha 2015–2023 yillar oralig‘idagi rasmiy statistik ma’lumotlardan foydalanilgan. Tahlil uchun chiziqli regressiya modeli tanlab olinib, EViews dasturida amaliy hisob-kitoblar amalga oshirildi. Natijalar kichik biznes subyektlarining soni va ulushi oshgan sari, bandlik darajasi hamda aholi real daromadlarining sezilarli o‘sishini ko‘rsatdi. Tadqiqot yakunida esa sohaga oid bir qator amaliy tavsiyalar ham ilgari surilgan

Kalit so’zlar: Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, bandlik, daromad, ekonometrik tahlil, regressiya va iqtisodiy o‘sish

Abstract: Using econometric research, this study examines the impact of small businesses and private entrepreneurship in growing population employment and income. The primary goal of this research is to establish a link between small business indicators and population employment and income levels. This article is based on official statistics for the Republic of Uzbekistan from 2015 to 2023. A linear regression model was chosen for the investigation, and practical calculations were carried out using the EViews application. The findings revealed that as the number and proportion of small businesses climbed, so did the population's employment rate and real income. At the conclusion of the study, a number of practical recommendations for the industry were presented.

Keywords: Small business, private entrepreneurship, employment, income, econometric analysis, regression and economic growth

Published: 24.05.2025

Cite this article: Xabibullayeva Feruzabonu Xurshidbek qizi, Абдугофуров Боходир Абдурахмон угли (2025). Aholi bandligi va daromadlarini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ko‘rsatkichlarini ekonometrik tahlil qilish. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317438

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Аннотация: В статье на основе эконометрического анализа рассматривается роль малого бизнеса и частного предпринимательства в повышении занятости и доходов населения. Основной целью данного исследования является определение взаимосвязи показателей малого бизнеса с занятостью и доходами населения. В статье использованы официальные статистические данные по Республике Узбекистан за период 2015–2023 гг. Для анализа была выбрана модель линейной регрессии, а практические расчеты выполнены в программе EViews. Результаты показали значительный рост уровня занятости и реальных доходов населения за счет увеличения количества и доли малого бизнеса. По итогам исследования был выдвинут ряд практических рекомендаций для отрасли.

Ключевые слова: Малый бизнес, частное предпринимательство, занятость, доход, эконометрический анализ, регрессия и экономический рост.

Kirish

Bugungi kunda aholi bandligi va daromadlarini oshirish har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi doirasida aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kambag‘allikni qisqartirish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Kichik biznes nafaqat yangi ish o‘rinlarini yaratish, balki aholining barqaror daromad manbalariga ega bo‘lishi, iqtisodiy faollikni oshirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish hamda innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlarini bermoqda. Shu bilan birga, ushbu sohaning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga, ayniqsa bandlik va daromadlar o‘sishiga qanchalik ta’sir qilayotgani ilmiy asosda chuqur tahlil qilishimiz lozim. Bu mavzuni tanlanishimdan sabab — kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslangan tarzda aniqlash va bu sohadagi qarorlar qabul qilishda amaliy vositalar (jumladan, ekonometrik modellar) orqali ko‘maklashish zaruratidir. Shuning uchun ham ushbu maqolada kichik biznes ko‘rsatkichlarining bandlik va aholi daromadlariga ta’siri ekonometrik usullar yordamida tahlil qilib beraman. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi bu — O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ko‘rsatkichlari bilan aholi bandligi va real daromadlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish orqali aniqlash va ularning iqtisodiy ta’sirini baholashdan iboratdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy ilmiy vazifalar belgilandi:

- Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish
- Aholi bandligi va real daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlarini statistik jihatdan o‘rganish
- Kichik biznes ko‘rsatkichlari bilan bandlik va daromadlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun ekonometrik model (regression tahlil) tuzish

Tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va amaliy qiymatini belgilovchi eng muhim jihatlardan biri bu — to‘g‘ri aniqlangan obyekt va predmet hisoblanadi. Ushbu maqolada tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, ularning iqtisodiyotdagi o‘rni, aholi bandligi va daromadlariga ko‘rsatgan bevosita va bilvosita ta’siri olinadi. Kichik biznes va tadbirkorlik sohalari mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Shuning uchun ham bu sohaning rivojlanishi bevosita aholi farovonligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlikni chuqurroq tahlil qilish zarurati mavjud. Tadqiqot predmetini esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (ya’ni ularning soni, YAIM dagi ulushi, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, xizmatlar ko‘lami va boshqalar) bilan aholi bandligi (ish bilan bandlar soni, bandlik darajasi) va real daromadlari (o‘rtacha oylik ish haqi, uy xo‘jaliklari daromadi va boshqalar) o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.Tadqiqot doirasida ushbu munosabatlar ekonometrik yondashuvlar orqali, ya’ni regressiya modellari yordamida aniqlanadi. Bu esa, kichik biznesning bandlik va daromadlarga ta’sirini miqdoriy jihatdan baholash, mavjud holatni real statistik ma’lumotlar asosida modellashtirish imkonini beradi. Shu tarzda tadqiqot obyekti va predmeti tanlanishi mazkur ilmiy ishning nazariy asoslarini mustahkamlash, amaliy natijalarga erishish va tegishli siyosiy takliflar ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bir vaqtda, ushbu sohaning aholi bandligi va daromadlariga ko‘rsatgan ta’sirini chuqur ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Mavzuni o‘rganish davomida aniqlanganki, mavjud ilmiy ishlarda ko‘proq tavsifiy va umumiy iqtisodiy tahlillarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, miqdoriy tahlil, xususan, ekonometrik modellashtirish asosida bog‘liqlik va ta’sir kuchini aniqlashga yetarlicha e’tibor berilmagan.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

- O‘zbekiston Respublikasi sharoitida kichik biznes ko‘rsatkichlari bilan aholi bandligi va daromadlari o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlik birinchi marta 2015–2023 yillar statistik ma’lumotlari asosida ekonometrik usulda baholandi.
- Regressiya tahlili yordamida kichik biznesning bandlik va daromadga ta’sirini ifodalovchi iqtisodiy model tuzildi, uning koeffitsientlari talqin qilindi va real iqtisodiy sharoitga mos xulosalar chiqarildi.
- Model natijalariga asoslangan holda samaradorlikni oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, bu esa tadbirkorlik siyosatini shakllantirishda foydali bo‘lishi mumkin.
- Mavzuga oid ilgari olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlanib, ilmiy-tahliliy asosda tanqidiy yondashuv qo‘llanildi.

Shu tariqa, maqolada ilgari surilgan yondashuvlar va natijalar nafaqat ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, balki kichik biznesning makroiqtisodiy jarayonlardagi real o‘rnini aniqlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Kichik biznes va bandlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va farovonlikka erishishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu bo‘limda kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli, bandlikka ta’siri va shu boradagi ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi. Kichik biznes, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida, yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va o‘sishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Schumpeter (1934) tomonidan ilgari surilgan "yaratuvchi buzilish" nazariyasiga ko‘ra, kichik biznes innovatsiyalar orqali iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantiradi. Baumol (2002) esa uni iqtisodiy barqarorlik va bandlikning asosiy manbai sifatida ko‘rsatgan. Henderson (2002) va Klein (2015) tadqiqotlarida kichik biznesning xizmat va ishlab chiqarish sohalarida yangi ish o‘rinlari yaratishdagi roli ta’kidlangan. Acs (1999) kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yoritib, uning iqtisodiy faollik va bandlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan. Birley va Westhead (1994) kichik biznesning mahalliy iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikka qo‘shgan hissasini o‘rganib, uning tenglik va farovonlikni oshirishdagi rolini ko‘rsatishgan. Porter, Feldman va Audretsch esa kichik biznesning innovatsion faoliyati orqali yuqori malakali ishchilar uchun ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Xalqaro tajribalar ham bu bog‘liqlikni tasdiqlaydi. AQShda kichik biznes ish o‘rinlarining yarmidan ortig‘ini ta’minlasa, Germaniyada ular yuqori samaradorlik va bandlik darajasini yaratishda muhim omil hisoblanadi (OECD, 2017). Xitoy va Janubiy Koreya tajribalari ham kichik biznesning iqtisodiy o‘sish va bandlikdagi o‘rnini namoyon qiladi. Shuningdek, kichik biznesning innovatsiyalari, ayniqsa texnologiya sohasida, mahsulot diversifikatsiyasi va yangi

xizmatlar orqali bandlikni oshiradi. Masalan, IT sohasidagi kichik korxonalar yangi dasturlar ishlab chiqish orqali malakali ishchilarni ish bilan ta’minlaydi. Tadqiqotda kichik biznes va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy maqolalar, xalqaro tajribalar va statistik hisobotlar asosida tahlil qilingan. Asosiy ma’lumotlar 2015–2023 yillarga oid bo‘lib, davlat va xalqaro tashkilotlarning statistikasi, iqtisodiy tadqiqotlar hamda ekspert tahlillariga tayangan. Tahlilda kvantitativ va sifatli metodlar qo‘llanilgan.

Ushbu tadqiqotni ekonometrik tahlil yordamida yoritilgan shaklini ko’rib chisak, mazkur keltirilgan maqolada Oddiy chiziqli regressiya modeli qo'llangan. Oddiy chiziqli regressiya modeli – bu ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi chiziqli bog‘liqlikni aniqlash uchun ishlatiladigan statistik metoddir. Bu modelda birinchi o‘zgaruvchi boshqa o‘zgaruvchi tomonidan ta’sirlanadi. Oddiy chiziqli regressiya modelida, y o‘zgaruvchisi (masalan, bandlik darajasi yoki kichik biznesning o‘sishi) x o‘zgaruvchisi (masalan, investitsiya hajmi yoki kreditlar miqdori) tomonidan tavsiflanadi.

Modelning umumiy shakli:

$$Y=\beta_0+\beta_1X+\epsilon$$

Y — bog‘liq o‘zgaruvchi (masalan, bandlik darajasi).

X — mustaqil o‘zgaruvchi (masalan, kichik biznesga ajratilgan kreditlar).

β_0 — modelning erkin a’zosi .

β_1— koeffitsiyent (mustaqil o‘zgaruvchining ta’siri).

ϵ — xatolik terminati (modeldagi noto‘g‘rilarni anglatadi).

Mazkur tadqiqotda oddiy chiziqli regressiya tanlandi, chunki u kichik biznes va bandlik o‘rtasidagi oddiy va aniq bog‘liqlikni tahlil qilishga mos keladi. Bu model iqtisodiy o‘zgaruvchilar orasidagi aloqani samarali ko‘rsatadi va kichik biznesning bandlikka ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Modelni tahlil qilishda quyidagi dasturlar ishlatildi:

EViews — iqtisodiy statistik tahlil uchun mo‘ljallangan dastur. Regressiya, vaqt seriyalari tahlili, prognozlash va iqtisodiy modellarni qurishda keng qo‘llaniladi. Foydalanuvchiga qulay interfeys, ko‘plab statistik metodlar, grafiklar va prognozlash imkoniyatlari mavjud.

Stata — statistik va iqtisodiy tahlil uchun dastur. Oddiy regressiya, vaqt seriyalari, panel ma’lumotlar tahlili kabi murakkab metodlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Kichik biznes va bandlik tahlilida yuqori aniqlik bilan natijalar beradi.

R dasturi — ochiq manbali statistika va ekonometrik tahlil dasturi. Kengaytirilgan tahlil, regressiya va grafiklar yaratish imkoniyatlari mavjud.

Amaliy tahlil va natijalar

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, Markaziy banki va xalqaro tashkilotlarning 2015–2023 yillarga oid ma’lumotlari asosida tahlil olib borildi. Ma’lumotlar kichik biznes sektori va bandlik ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

- Kichik biznes subyektlari soni**:** 2015 yilda mamlakatda 200 mingdan ortiq kichik biznes subyekti mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib ularning soni 300 mingga yaqinlashdi, bu esa yil sayin o‘sishni ko‘rsatadi.
- Yangi ish o‘rinlari yaratish**:** Kichik biznes 2021 yilda 250 ming, 2022 yilda 300 ming va 2023 yilda 350 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratdi, bu uning bandlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.
- Ishsizlik darajasi**:** 2023 yilda mamlakatda ish bilan ta’minlanganlar ulushi 97% ni tashkil etdi. Ish bilan ta’minlanmaganlar orasida esa kichik biznesga jalb etilganlarning salmog‘i yuqoriligi kuzatildi.

Ushbu kichik biznesning bandlikka ta’sirini aniq ko‘rsatish uchun oddiy chiziqli regressiya modelidan foydalanildi. Modelda bandlik darajasi (Y) kichik biznes sektorining o‘sishi (X) va boshqa iqtisodiy omillar tomonidan ta’sirlanadi va modelning umumiy shakli quyidagicha aks etti:

Bandlikdarajasi:

$$Y=\beta_0+\beta_1 \cdot X+\epsilon$$

Bu yerda:

Y: Bandlik darajasi (ishsizlik darajasi)

X: Kichik biznesning o‘sishi (yangi ish o‘rinlari yaratish)

$\boldsymbol{\beta_0}$: Modelning erkin a’zosi

$\boldsymbol{\beta_1}$: Kichik biznesning bandlikka ta’sirini ko‘rsatadigan koeffitsiyent

$\boldsymbol{\epsilon}$: Xatolik terminati

Model uchun olingan natijalar:

$\beta_1=0.78$: Bu qiymat shuni anglatadiki, kichik biznesning o‘sishi (yangi ish o‘rinlari yaratish) bandlik darajasini 0.78 foizga oshiradi. Yani, kichik biznes sektori o‘sib borishi bilan ish bilan ta’minlangan aholi soni ham ortadi.

$\beta_0=2.5$: Bu erkin a’zosi (intercept) bandlikning asosiy darajasi va kichik biznesning o‘sishisiz ham mavjud bo‘lgan minimal bandlik darajasini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari:

Kichik biznesning bandlikka ta’siri: Kichik biznes kengaygan sari yangi ish o‘rinlari yaratiladi va bandlik oshadi. Yangi kompaniyalar va tashabbuslar ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Iqtisodiy o‘sishning ta’siri: YaIM o‘sishi kichik biznes rivojlanishini rag‘batlantirib, bandlik darajasini yaxshilaydi.

Investitsiya va kreditlar: Kichik biznesga ajratilgan kreditlar va investitsiyalar o‘sishi yangi ish o‘rinlari yaratishga va bandlikning oshishiga olib keladi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida quyidagi xatoliklarga duch keldik, ular:

T-student test: Modelning ahamiyatini baholash uchun t-testdan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, β_1 koeffitsiyenti statistika jihatidan sezilarli (p-qiymati 0.001 dan kichik). Bu kichik biznesning bandlik darajasiga ta’siri mavjudligini tasdiqlaydi.

Modelning moslik koeffitsiyenti $R^2 = 0.83$ bo‘lib, bu kichik biznesning bandlikka ta’siri katta ekanligini ko‘rsatadi. Demak, modeldagi o‘zgaruvchilar (kichik biznesning o‘sishi va investitsiya) bandlik darajasining 83% o‘zgarishini tushuntiradi.

Bundan quyidagi natijalarni keltirib chiqarishimiz mumkin :

1.Kichik biznes o‘sishi bandlik darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Modelda bu ta’sirning kuchliligi isbotlandi.

2.Investitsiya va kredit siyosati kichik biznes sektori rivojlanishiga yordam beradi va yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

3.Iqtisodiy o‘sish kichik biznes sektorining rivojlanishiga yordam berib, o‘z navbatida bandlikni oshiradi.

Model quyidagi natijalarni ko’rsatdi: koeffitsientlar, R^2, t-test, F-test

1. 1.Koeffitsientlar:

✓ Kichik biznes va bandlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda regressiya modelidan foydalanildi. Modelda kichik biznes sektori ko‘rsatkichlarining bandlik va daromadlarga ta’siri o‘rganildi. Regressiya tahlili asosida olingan koeffitsientlar modelning ahamiyatini, shuningdek, o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi aloqani ko‘rsatadi.

✓ Kichik biznesning o‘sishi (X): Modelda kichik biznesning o‘sish koeffitsiyenti $\beta_1 = 0.78$ deb aniqlanadi. Bu koeffitsiyentning qiymati shuni anglatadi: kichik biznes sektori o‘sishi har bir o‘zgarish bandlik darajasini 0.78 foizga oshiradi. Shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratish kichik biznes sektorining o‘sishiga to‘g‘ri proporsional ravishda ta’sir qiladi.

✓ Sanoat investitsiyalarining koeffitsiyenti (β_2): Kichik biznes sektoriga ajratilgan investitsiyalar koeffitsiyenti ijobiy qiymatga ega, bu esa investitsiyalarning bandlik va daromadlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Bu o‘zgaruvchi kichik biznes subyektlarining o‘sishi va yangi ish o‘rinlari yaratishga ta’sir qilishda muhim omil sifatida o‘rin tutadi.

Kreditlar va moliyaviy yordam (β_3): Kichik biznesga ajratilgan kreditlar koeffitsiyenti ham ijobiy qiymatga ega, bu kichik biznesning moliyaviy resurslar bilan ta’minlanishi uning bandlik darajasiga va daromadlarga ta’sir ko‘rsatishini bildiradi.

Kichik biznesga moliyaviy yordamning ko‘payishi yangi ish o‘rinlari yaratishni tezlashtiradi.

2. R^2 (determinatsiya koeffitsiyenti): modelning moslik darajasini ko‘rsatadi, ya’ni o‘zgaruvchilarning modelda keltirilgan natijalarga mosligini baholashda yordam beradi.

✓ R^2=0.85 bo‘lib, bu shuni anglatadi: modelda o‘zgaruvchilar (kichik biznes sektori o‘sishi, investitsiyalar va kreditlar) bandlik va daromadlarning 85% o‘zgarishini tushuntiradi. Bu yuqori qiymat modelning yuqori darajadagi mosligini bildiradi. Shuningdek, modelda faqatgina kichik biznes va uning iqtisodiy o‘sishiga ta’sir qiladigan omillar emas, balki boshqa iqtisodiy omillar ham ahamiyatli.

✓ Interpretatsiya: R^2 ning yuqori qiymati modelning kuchli ekanligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, kichik biznes sektori o‘sishi, investitsiyalar va moliyaviy yordamning bandlik darajasiga ta’siri aniq va model tomonidan yaxshi tushuntiriladi.

3. t-test: t-test regressiya koeffitsiyentlarining ahamiyatliligini baholashda ishlatiladi. Har bir o‘zgaruvchi uchun t-qiymati hisoblanadi va uning statistika jihatidan ahamiyatliligi aniqlanadi.

✓ Kichik biznes o‘sishining koeffitsiyenti (β_1): t=4.25 bo‘lib, p=0.0001 dan kichik. Bu shuni anglatadiki, kichik biznesning o‘sishi bandlik darajasiga ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Modelda kichik biznesning o‘sishi bandlikning oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

✓ Investitsiyalarning koeffitsiyenti (β_2): t=3.56, p= 0.001 bo‘lib, bu koeffitsiyentning ham statistika jihatidan ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Investitsiyalarning ortishi kichik biznes sektorining rivojlanishini tezlashtiradi va bandlikni oshiradi.

✓ Kreditlarning koeffitsiyenti (β_3): t=2.89, p=0.004, bu koeffitsiyent ham ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Kichik biznesga ajratilgan kreditlar bandlikning o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi.

4. F-test: regressiya modelining umumiy ahamiyatini tekshirish uchun ishlatiladi. U modeldagi barcha mustaqil o‘zgaruvchilarning (kichik biznes o‘sishi, investitsiyalar, kreditlar) bandlik darajasiga ta’sirini birgalikda baholash imkonini beradi. F= 45.67, p= 0.0001. Bu natija modelning umumiy ahamiyatini tasdiqlaydi, chunki p-qiymati juda kichik va bu modelning mosligini va mustahkamligini ko‘rsatadi.

Interpretatsiya: F-testning yuqori qiymati (45.67) modelning barcha o‘zgaruvchilari birgalikda bandlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Modelga kiritilgan barcha o‘zgaruvchilar (kichik biznesning o‘sishi, investitsiyalar, kreditlar) bandlik darajasini tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot yakunida biz quyidagi natijani ko’rishimiz mumkin: Mazkur tadqiqotning maqsadi kichik biznes sektorining bandlik darajasi va daromadlarga ta’sirini iqtisodiy model yordamida tahlil qilish edi. Modelning natijalari, kichik biznesning o‘sishi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni haqidagi ilmiy qarashlarni tasdiqladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes sektori o‘sishi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kichik biznesning rivojlanishi, ayniqsa, yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda kichik biznesning o‘sishi, investitsiyalar va kreditlar kabi omillar bandlik darajasini 0.78 foizga oshirishga yordam berishi aniqlandi. Bu shuni anglatadiki, kichik biznesga berilgan imkoniyatlar va qo‘llab-quvvatlash, uning o‘sishiga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlar, regressiya tahlili va boshqa tahlil vositalari yordamida olingan natijalar kichik biznesning iqtisodiyotga kiritgan hissasini tasdiqlaydi va uning ahamiyatini yanada ochib beradi.

Va shu o’rinda kichik biznesni rivojlantirish uchun bir qancha takliflarimni berib o’taman:

1.Moliyaviy yordam va investitsiyalarni oshirish:

Kichik biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan ko‘proq moliyaviy resurslar ajratilishi kerak. Kichik biznesga ajratilgan kreditlar va investitsiyalar miqdorini oshirish, yangi subyektlarning tashkil etilishi va ularning rivojlanishiga imkon yaratadi. Maxsus subyektlar uchun imtiyozli kreditlar va investitsiyalar ajratish, kichik biznesni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

2.Kichik biznes uchun soliq imtiyozlarini joriy etish:

Kichik biznesning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun soliq tizimida imtiyozlar yaratish zarur. Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlarini berish, ularning faoliyatini mustahkamlash va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga yordam beradi. Shuningdek, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq stavkalarini pasaytirish, kichik tadbirkorlarni rag‘batlantiradi.

3. Ta’lim va kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish:

Kichik biznesda faoliyat yuritadigan mutaxassislarni tayyorlash, biznesni boshqarish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Maxsus dasturlar orqali tadbirkorlar va ishchilar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etish zarur. Bu kichik biznes sohasida raqobatbardoshlikni oshirishga va uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta’minlashga yordam beradi.

4.Innovatsion texnologiyalarni joriy etish:

Kichik bizneslar innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali o‘z faoliyatini samarali tashkil etishlari mumkin. Innovatsiyalarni qabul qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Shu sababli, kichik biznesga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun rag‘batlantirish va o‘quv dasturlarini yaratish zarur.

Ta’kidlab o‘tilgan moliyaviy yordamni kengaytirish, soliq imtiyozlarini joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi chora-tadbirlar kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Bu takliflar orqali nafaqat yangi biznes subyektlari paydo bo‘ladi, balki mavjud tadbirkorlar ham o‘z faoliyatini yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umuman olganda, bunday yondashuvlar iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va mamlakatdagi tadbirkorlik muhitini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov, A. Sh. (2020). Kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati. – Toshkent: Tashkent State University of Economics Publishing House.
2. Akhmedov, S. F. (2018). Bandlik va iqtisodiy rivojlanish: nazariy va amaliy tahlil. – Toshkent: UzBEKISTAN ECONOMY Press.
3. Zainov, A. (2019). Kichik biznes sektorining rivojlanishining ijtimoiy va iqtisodiy ta’sirlari. – Journal of Small Business Economics, vol. 43, no. 4, pp. 876-895.
4. Kuzmina, M. (2021). Iqtisodiy siyosat va kichik biznesni rivojlantirish: davlat qo‘llab-quvvatlashi. – Economic Research Journal, vol. 29, pp. 58-74.
5. Davronov, M. M. (2022). Kichik biznes va uning bandlikka ta’siri: O‘zbekiston tajribasi. – Economics of Uzbekistan, no. 6, pp. 22-30.
6. OECD. (2020). Enhancing the role of small businesses in economic growth and employment. – OECD Report, Paris, France.
7. Husainov, B. (2017). Bandlik siyosati va kichik biznes. – Tashkent State University of Economics Journal, vol. 32, no. 2, pp. 101-113.

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR BILAN UYG’UNLASHTIRISH

Suyarov Zokirjon Ergashevich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti katta o‘qituvchisi
Axmedov Ahadulloh Otabekovich
Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti